

МАЛАКА ОШИРИШ ТИЗИМИДА ПЕДАГОГ КАДРЛАР КАСБИЙ  
КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ТАШХИСЛАШ

**Rajabova Nargiza Ahmadovna**

*Bosh ilmiy metodik markaz mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** Respublikamizda oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ularning kasbiy malakasini oshirishning zamonaviy shakllarini hamda ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat natijalarini inobatga oladigan tabaqalashtirilgan va muqobil uzluksiz malaka oshirish tizimini amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiq deb topildi1 .

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari o'quv jarayoniga o'qitishning zamonaviy shakl, metod, vosita va texnologiyalari (jumladan, masofaviy ta'lim, vebinar texnologiyalari, avtomatlashgan monitoring, elektron portfolio kabi axborot tizimlari) joriy etildi. Shu bilan birga, malaka oshirish tizimiga zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini doimiy rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirib, uzluksiz elektron tashxislash tizimni joriy etishni talab etmoqda.

kasbiy kompetentlik – shaxsning faoliyatda mustaqil, muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim va ijtimoiylash jarayonida mavjud bilimlari, tajribasiga asoslanuvchi hamda kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalari, tajriba, shaxsiy sifatleri yig'indisidir. Ko'rsatilgan sifatlar mohiyatini, ularning ta'limiy jarayondagi amaliy ahamiyatini tahlil qilish asosida malaka oshirish tizimida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini tashxislash va baholashni topishda metodik, axborot, kreativ, innovatsion, kommunikativ, texnologik kompetentlik sifatlariga tayangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq deb topildi. OTM pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida tinglovchilarning kasbiy kompetentlik sifatlariga egaligini tashxislash va baholash ularning potensialiga tayangan holda malakali, raqobatbardosh mutaxassislarni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biridir. Pedagogik tashxis (diagnostika) – aniq maqsaddan kelib chiqqan holda muayyan holat (fazilat, bilimlarni o'zlashtirish) bo'yicha o'rganiluvchi shaxs faoliyatini kuzatish, tekshirish va baholashga oid statistik ma'lumotlarni 12 yig'ish, ularni tahlil qilish, dinamik rivojlanishni aniqlashga qaratilgan nazorat yoki monitoringning tarkibiy qismi. O'z mohiyatiga ko'ra ma'lum jarayon, hodisa

yoki ob'ekt bo'yicha pedagogik tashxis qo'yishga qaratilgan faoliyat esa pedagogik tashxislash sanaladi. Chunki tashxislash negizida shaxs yoki avtomatik qurilma tomonidan amalga oshiriladigan real harakat yotadi. Malaka oshirish tizimida pedagoglarning kasbiy kompetentligini tashxislash quyidagilar asosida amalga oshiriladi: pedagogning kasbiy faoliyatda erishgan yutuqlari to'g'risida ma'lumot beruvchi portfoliyo; o'quv modullari bo'yicha tashkil etilgan sinov (test, referat, loyiha va boshqa)larning natijaviy ko'rsatkichlari; yo'nalishlar bo'yicha tashkil etiladigan kirish hamda oraliq nazorat (onlayn chiqish testlari) ning natijalari; yakuniy nazorat (bitiruv ishining sifati va uni samarali himoyaga qilganlik) to'g'risidagi ma'lumotlar. Malaka oshirish kurslarida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini tashxislash va baholashning maqsadi – kasbiy kompetentlik sifatlariga egalik darajasini belgilovchi real ko'rsatkichlarga tezkor ega bo'lish orqali tinglovchilarda yetarlicha rivojlanmagan kasbiy kompetentlik sifatlarini, ularni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni aniqlash asosida korreksiyalash choralarini belgilashdan iborat. Tadqiqotni olib borishda malaka oshirish kurslarida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini tashxislash va baholashning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: 1. Malaka talablarini inobatga olish asosida malaka oshirish kurslarida tahsil olayotgan tinglovchilar ega bo'lishi zarur bo'lgan kasbiy kompetentlik sifatleri (kompetensiyalar)ni belgilash. 2. Malaka oshirish kurslaridagi ta'lim jarayonini va tinglovchilar faoliyatini kuzatish, yetarlicha rivojlanmagan kasbiy kompetentlik sifatlarini, ularni o'zlashtirish yo'lidagi qiyinchiliklarni aniqlash. 3. Tashxis maqsadini aniq belgilash (tinglovchilarda axborot, innovatsion, texnologik, kreativlik, shaxsiy kompetentlik sifatlarini rivojlanganlik darajasini aniqlash va boshqalar).

**XULOSA.** Malaka oshirish tizimida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlari kasbiy kompetentligini tashxislash texnologiyalarini takomillashtirishga oid ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Ilmiy-pedagogik tahlillar, oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini malakasini oshirish tizimida pedagog kadrlar kasbiy kompetentligini tashxislash mazmunini kasbiy kompetentlikni tashxislash va baholashning tashkiliy-metodik, texnologik, korreksion bosqichlari va kognitiv, amaliy-faoliyatli, reflektiv mezonlari, shuningdek pedagog kadrlar kasbiy tayyorgarligi sifatiga qo'yiladigan malaka talablari bilan o'zaro bog'liqlikda takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.